Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 373.3
PEDAGOGIKA

# Boshlang'ich sinf o'quvchilari lisoniy ongida lingvorangli olam manzarasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.

Rohatoy Usmonaliyevna Abdullazizova*
*Farg'ona davlat universiteti*
✉ abdullazizovarohatoy@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining lisoniy ongida lingvorangli olam manzarasini rivojlantirish metodikasini ta'minlash masalalari bilan bog'liq. tadqiqot rang nomlarini bildiruvchi leksik birliklar (rang-tasvir metaforyasi, lingvorangnomalar) orqali o'quvchilarning lug'at boyligini belgilash, tasavvuri va badiiy-estetik tafakkurini o'stirish yo'llarini tahlil qilish. Boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida lingvorangli birliklardan samarali yuklash bo'yicha zamonaviy va interfaol metodik tavsiyalar, mashqlar va topshiriqlar tizimini ishlab chiqarish.

**Kalit so'zlar**

Lisoniy ong, lingvorangli olam manzarasi, estetik'ich ta'lim, lingvorangnoma, leksika, estetik tafakkur, ta'lim metodikasi, interfaol usullar.

DOI: 10.5281/zenodo.21743268

## KIRISH

Boshlang'ich ta'lim o'quvchisining shaxs sifatida rivojlanishiga hamda unda olamni anglash va idrok etish imkoniyatlarini eng yuqori darajada shakllanadigan hal qiluvchi bosqichdir. Zamonaviy pedagogika dolzarb masalalaridan bola lisoniy ongida atrofdagi olamning rang-barang, boy hamda konseptual manzarasini tarkib toptirishdan iborat. Bu jarayonda lingvorangli olam manzarasi ya'ni til so'zlari, iboralari, tasviriy vositalari va ranglar semantikasi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni anglash xususiyati yetakchi o'rin tutadi.

Lisoniy ong shunchaki grammatik qoidalarni bilish yoki so'zlarni yodlash emas, balki lingvistik birliklar orqali fikrlash, voqelikka hissiy va estetik munosabat bildirish ko'nikmasidir. Ranglar esa insonning emotsional, kognitiv va madaniy tajribasini ifodalovchi universal simvolik tildir. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishda ranglar metaforikasi va semantikasidan unumli foydalanish uning fikrlash doirasini kengaytiradi, nutqini boyitadi hamda dunyoqarashini o'stiradi.

Ushbu tezisda boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvorangli olam manzarasini shakllantirish va rivojlantirish uchun dars jarayoniga tatbiq etilishi lozim bo'lgan innovatsion interfaol metodlar hamda ularning metodik asoslari batafsil tahlil qilinadi.

Inson dunyoni til vositasida idrok etadi. Til o'zida milliy madaniyat, qadriyat, tuyg'u va tajribalarni aks ettiruvchi ko'zgudir. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda ko'rgazmali-obrazli tafakkur yetakchi o'rinda turadi. Bolalar so'zlarni ko'proq vizual va emotsional obrazlar orqali eslab qolishadi va tahlil qilishadi.

Lingvorangli olam manzarasini rivojlantirish quyidagi kognitiv-metodik tamoyillarga tayanadi:

- Integratsiyalashuv: Til saboqlari, adabiy mutolaa, tasviriy san'at va atrofimizdagi olam fanlarining o'zaro uzviy bog'liqligi.
- Vizualizatsiya: So'z ma'nosi va badiiy tasvirni rang hamda shakllar bilan parallel qabul qilish.

- Emotsional va madaniy konnotatsiya: Ranglarning faqat fizikaviy belgi emas, balki ma’lum bir kayfiyat, qadriyat va milliy madaniyatni tashuvchi vosita ekanligini anglash.

Boshlang‘ich sinflarda til darslari va nutq o‘stirish mashg‘ulotlarini interfaol, qiziqarli hamda kognitiv faoliyatga yo‘naltirilgan holda tashkil etish uchun quyidagi to‘rtta asosiy metodni qo‘llash yuqori samara beradi:

**“Ongli tanla” metodi** Ushbu metod o‘quvchilarda tanlov erkinligi hamda mas’uliyatini shakllantirish orqali til va kognitiv imkoniyatlarni kompleks rivojlantirishga qaratilgan.

- Metodning mohiyati va maqsadi: O‘quvchiga berilgan topshiriq yoki matn doirasida so‘zlar, iboralar hamda ularga mos keluvchi ranglar variantlari taklif etiladi. O‘quvchi shunchaki tasodifiy javobni emas, balki mantiqiy asoslangan ”ongli tanlov”ni amalga oshiradi.
- Rivojlantiriladigan ko‘nikmalar:

1. Til kompetensiyasi: Lug‘at boyligining ortishi, so‘zlarni o‘z o‘rnida va aniq qo‘llash.
2. Kognitiv (fikrlash) qobiliyati: Tahlil qilish, solishtirish, xulosa chiqarish.
3. Madaniy ong: Rang va so‘zlarning milliy va umuminsoniy ma’nolarini anglash.
4. Ijodiy va emotsional rivojlanish: Shaxsiy his-tuyg‘ularni va estetik qarashlarni til hamda rang orqali ifodalay olish.

- Amaliy qo‘llanilishi: Matnda berilgan sifatlarni ularning emotsional boyoqdorligiga qarab ma’lum ranglar bilan belgilash yoki hikoya qahramonining xarakteriga mos keladigan rang-so‘z juftligini tanlab asoslab berish.

**“Boshqacha nomla” metodi** Ushbu metod o‘quvchilarning tanqidiy tafakkuri va tahlil qilish ko‘nikmalarini charxlovchi samarali vositadir.

Metodning mohiyati va maqsadi: Matn, rasm, epizod yoki qahramon xatti-harakatiga yangicha, noshtat nom berish (sarlavha qo‘yish) va ushbu nomlanish sababini tushuntirib berish.

Rivojlantiriladigan ko‘nikmalar: Sabab-oqibat va tanlov ko‘nikmalari**:** Nega aynan ushbu nom berilganini sabab va oqibat zanjiri orqali isbotlash. Matnlarni to‘g‘ri tahlil qilish: Matnning bosh g‘oyasi, ostki ma’nolari hamda konseptual mazmunini tushunish. Tanqidiy fikrlash: Voqelikka standart qoliplardan holi holda, nostandart va teran nazar bilan qarash. Muloqot ko‘nikmalari: O‘z fikrini guruh oldida erkin, mantiqiy va savodli bayon etish. Amaliy qo‘llanilishi: O‘quvchilarga ”Kuz mo‘jizalari” matni beriladi. Bolalar matnni tahlil qilib, unga ”Sariq barglar raqsi” yoki “Oltin tabiat sabog‘I” kabi lingvorangli nom berishadi va o‘z tanlovlarining sabab-oqibatini tushuntiradilar.

**“Bog‘lab top” metodi** Jamoada ishlash, fikrlarni umumlashtirish hamda yuqori darajadagi tafakkurni shakllantirishga mo‘ljallangan metod. Metodning mohiyati va maqsadi: Bir-biri bilan bir qarashda bog‘liq bo‘lmagan so‘z, rang va tushunchalar o‘rtasida mantiqiy va assotsiativ ko‘priklar o‘rnatish.

Rivojlantiriladigan ko‘nikmalar: Hamkorlik: Guruhda fikrlash, bir-birini eshitish va umumiy toxtamga kelish. Ijodiy tafakkur**:** Nostandart assotsiatsiyalar va yangi badiiy obrazlar yaratish. Metakognitsiya: O‘quvchining o‘z fikrlash jarayonini va bilish mexanizmlarini anglab yetishi (”Men bu xulosaga qanday keldim?”). Amaliy qo‘llanilishi: Guruhlarga ”Moviy” rangi va ”Beshik” so‘zi beriladi. O‘quvchilar bu ikki tushunchani o‘zaro bog‘lab, lingvistik va emotsional sababini topadilar (masalan: moviy rang — tinchlik va osuda osmon belgisi, beshik esa bolaning tinch va osojishta maskani).

**“Yorqin tasvirlar” metodi** Ushbu metod motivatsional-refleksiv xarakterga ega bo‘lib, darsning istalgan bosqichida yoki dam olish daqiqalarida ruhiy va emotsional muhitni barqarorlashtirish hamda nutqni faollashtirish uchun qo‘llaniladi. Metodning mohiyati va maqsadi: O‘quvchining ichki holati, kayfiyati va darsdan olgan taassurotlarini vizual shakllar va yorqin ranglar orqali namoyon etish hamda ularni lisoniy shakllantirish.

Rivojlantiriladigan ko‘nikmalar: Refleksiya hamda o‘z-o‘zini anglash: O‘z emotsiyalarini rang va so‘z bilan ifodalash. Vizual-emotsional bog‘liqlik: Rang va so‘z o‘rtasidagi emotsional simvolikani tushunish. O‘quv motivatsiyasini oshirish**:** Dars jarayonidagi toliqishni kamaytirish va ijodiy erkinlik muhitini yaratish.

Amaliy qo‘llanilishi: Dars so‘ngida o‘quvchilar o‘zlarining o‘zlashtirish darajalari hamda kayfiyatlarini ma’lum ranglar va unga mos so‘zlar (“yorug”, “nurli”, “tumanli”, “quvnoq”) orqali chizib yoki tanlab ifodalab beradilar.

Ushbu metodlar kompleks shaklda dars bosqichlariga singdirilganda eng yuqori samaradorlikni beradi:

| Dars bosqichi | Qo‘llaniladigan metod | Metodik maqsad va natija |
|---|---|---|
| **I. Tashkiliy va motivatsiya** | **“Yorqin tasvirlar”** | O‘quvchilarning emotsional holatini aniqlash, darsga diqqatni jalb etish va kayfiyatni vizual-lisoniy shakllantirish. |
| **II. Yangi mavzuni idrok etish** | **“Ongli tanla”** | Yangi lingvorangli so‘z va iboralarni kognitiv va madaniy jihatdan tahlil qilib, to‘g‘ri va ongli tanlash. |
| **III. Mustahkamlash va tahlil** | **“Boshqacha nomla”** | Matn va tushunchalarni tanqidiy tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘liqligini topish hamda muloqotga kirishish. |
| **IV. Umumlashtirish va tatbiq** | **“Bog‘lab top”** | Guruhda hamkorlikda ishlash, metakognitiv ko‘nikmalarni va ijodiy tafakkurni namoyon etish. |

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvorangli olam manzarasini rivojlantirish — faqatgina lug‘at boyligini oshirish bilan cheklanmaydigan, balki bolaning kognitiv, emotsional, madaniy va ijodiy imkoniyatlarini yaxlit holda o‘stiruvchi murakkab va serqirra jarayondir. Dars jarayoniga “Ongli tanla”, “Boshqacha nomla”, “Bog‘lab top” va “Yorqin tasvirlar” kabi zamonaviy, motivatsional-refleksiv hamda kognitiv metodlarni takomillashtirilgan holda olib kirish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1. O‘quvchining lisoniy ongi va nutqiy kompetensiyasi boyiydi;
2. Tanqidiy va metakognitiv fikrlash, sabab-oqibat zanjirini tuzish ko‘nikmalari shakllanadi;
3. O‘quvchilarda jamoada hamkorlik qilish, o‘z fikrini erkin va mantiqiy yetkazish madaniyati yuzaga keladi;
4. Ranglar va lingvistik birliklar sintezi orqali milliy va umuminsoniy madaniy ong poydevori mustahkamlanadi.

## XULOSA

Shunday qilib, lingvorangli olam manzarasini metodik jihatdan takomillashtirish boshlang‘ich ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – 397 с.
2. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993. – 656 с.
3. Whorf B.L. Language, Thought and Reality: Selected Writings. – Cambridge, MA: MIT Press, 1956. – 278 p.
4. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с.
5. Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.
6. Корнилов О.А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов. – М.: ЧеРо, 2003. – 349 с.
7. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996. – 416 с.
8. Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность: От теории словесности к структуре текста. Антология / Под общ. ред. В.П. Нерознака. – М.: Academia, 1997. – С. 267–279.
9. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.